



ABU ALI IBN SINONING “HAYY IBN YAQZON” ASARIDA RUHIY POKLIK VA ILOHIY ISHQNING TASAVVUFIIY TALQINI.

Nurova Shoxida Naimovna

Buxoro ZARMED universitet (PhD)

nurovashoxida71@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15287234>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2025

Accepted: 20th April 2025

Published: 26th April 2025

KEYWORDS

Ilohiy ne'mat, mantiq ilmi, fatalistik taqdir aqidasi, ruxsat (al-amr) bo'lmasa, taqiq (an-naxiy), irfoniy ta'limoti, So'fiylik, intellekt, ezoterik amaliyot, aqliy quvvatlar, g'azab, istak, xayol, Zaboniya (ya'ni do'zax farishtalari)

ABSTRACT

Ushbu maqolida Abu Ali Ibn Sinoning «Hayy ibn Yaqzon (Uyg'oq o'g'li tirik)» — ramziy-majoziy uslubda yozilgan qissasining bosh qahramon — birinchi shaxs Ibn Sino ekanligini, uning suhbatdoshi, hikoya qiluvchi — Hayy ibn Yaqzon – Uyg'oq o'g'li Tirik – Aql ekanligini ko'ramiz. Ibn Sinoning bu qissasi ko'p jihatdan majoziy, ramziy bitilgan, kishilar fe'li atvorini o'z ichiga qamrab ololgan va hayotiy gaplardan mulohaza yuritadigan adabiy asar ekanligini shu nuqtai nazardan qaraganda qissaning ikki sohada — ham falsafiy, ham adabiy sohada yozilganligi bayon qilingan.

KIRISH

Ibn Sino o'z asarlarida turli sohalarda erishilgan ilmiy yutuqlarni falsafiy tahlil qilib, ularni umumlashtirish, izchil bayon etish, boyitish va tartibga solish bilan birga fanning turli masalalarida ajoyib yutuqlarni qo'lga kirita oldi. Mutafakkir o'z davri uchun juda ham muhim bo'lgan ilg'or g'oyalarni ilgari surdi va ular uchun kurashdi. Ibn Sinoning hayoti va ijodi bugungi kunga qadar keng o'rganilgan va uning asarlari turli tillarga tarjimalar qilinib kitoblar va maqolalar nashr etilgan. Mutafakkirning ma'naviyat sarchashmalarini tadqiq etarkanmiz, unda turfa olam yangiliklaridan yanada voqif bo'lib, inson tafakkurida yangi g'oyalarni tug'ilishiga hamda bugungi kun muammolariga yangicha yechim topganday bo'lamiz.

NATIJA VA MUHOKAMA

“Hay ibn Yaqzon” qissasini Ibn Sino 1023-yili Hamadonga yaqin bo'lgan Faradjon qal'asi qamoqxonasida yozgan degan ma'lumotlar tarixiy manbalarda uchraydi. Qissa arab tilida yozilgan. Ivrit (qadimgi yahudiy) tiliga qissaning she'riy tarjimasini Ibn Erza (117-yilda vafot etgan), nasriy tarjimasini 1886-yilda P.D.Kaufman amalga oshirgan. Insonning tabiatiga xos bo'lgan ijobiy va salbiy jihatlarning ta'rifiga katta o'rin berilgan, qissaning o'zi esa, umuman insonning ma'naviy qiyofasiga, intizomiga, uni noma'qul qilmishlarga ergashishdan qaytarishga bag'ishlangan. Qissadagi barcha qahramonlar ma'lum ramziy siymolarni gavdalandiradi: yosh yigit bilan birga G'arbdan sharqqa sayohat qilayotgan qariya siymosi – faoliyat ko'rsatayotgan ong ramzidir. G'arb deganda moddiy olam, ya'ni inson tanasi, sharq deganda – insonning ruhiy olami, ya'ni inson idroki tushuniladi. Idrok insonni yaramas kirdikorlardan ogohlikka chaqiradi, mantiq ilmini o'rganishga undaydi. Qissada mantiqni – farosat (ya'ni fiziognomika) deb yuritilgan. Qissada asosan insonlarni bu dunyoda tinch va halol to'g'ri yo'ldan yurib xotirjam yashamoqchi bo'lsa bunga faqat ilm orqali yetishsh mumkinligini bildirib barchani doimo ilm olib yashashga da'vat etgan. Mutafakkir fikricha, ilm

hamma narsadan ustun ilohiy ne'mat, inson nomini mangulikka muhrlab qoldiradigan, insonni doimo to'g'rilikka boshlovchi bir vositadir. Ayniqsa mantiq ilmi foydasi barcha ilmlardan natijasi naqd bo'lgan ilmlardan bo'lib, kishi tafakkuri, ongi va didini o'stiradi.

Inson ruhini faqat aql-idrokning faoliyati bilan cheklab bo'lmaydi. Uning vazifasi fazilatlar orqali insonning tabiati va mohiyatini yaxshilashni o'z ichiga oladi va bu pirovard maqsaddir. Inson shuning vositasida yuksak daraja va baxtga erishadi.

Mavjudlik va dunyoda Xudodan boshqa hech kim yo'qligi. U astronomiyada ham shunga o'xshash narsani ko'rdi va bularning barchasiga ishonch hosil qildi. Keyin hushidan ketishga o'xshagan holatidan, qanday bo'lsa, hislar hayotiga uyg'ondi. U jismoniy dunyoga qaytishi bilan ilohiy olamni sog'indi, chunki ularning uchrashishi bir holatda mumkin emas edi, shuning uchun u dunyoning tashvishlaridan charchadi va unga intilishi kuchaydi. Yakuniy hayot, shuning uchun u vaqti-vaqti bilan uni eng oson harakat bilan yana olishi uchun uni so'ray boshladi. Aytishlaricha, orol yaqinida Hayy ibn Yaqzon istiqomat qiladigan yana bir orol bo'lib, u yerda payg'ambarlikning haqiqiy ta'limotlari yetib borgan va uning aholisi orasida qonunga amal qiladigan ikki solih kishi bo'lgan.

U yer yuzidagi xalqni solih xalq deb ta'riflagan, ular javob bermaydilar.

Ibn Sino o'z ijodining ikkinchi qismida "Hayy ibn Yaqzon" asarida faol aql timsolini nihoyatda yaxshi ochib beradi". Ibn Sinoning "Hayy ibn Yaqzon" asarida insonni ruhiy kamoloti yo'lida unga yordam beradigan va uni yo'ldan ozdiruvchi holatlar haqida to'xtalib o'tadi. Mutafakkir fikricha, "Shaytonning ikkita shoxi bo'lib, bu shoxlardan biri osmonga ko'tarilgan, ikkinchisi esa yerga qaratilgan bo'lib hisoblanadi deydi. Osmonga ko'tarilgan shoxi esa, aqliy, mantiqiy bilishidir. Shaytonning o'zi kim? Inson qalbida, ruhitida, tabiatida yashiringan psixik kuchdir". Bu ong osti hissiy va aqliy bilishni boshqaradi.

Insonning amaliy faoliyati ilm asosida amalga oshadi. Demak, bilim, tajriba, malaka asosida shakllangan ma'naviyat inson faoliyatiga o'ziga xos yo'nalish, imkoniyat beradi. Mana shu kamolotga intilishning o'zi mohiyatiga ko'ra yaxshilikdir. Ibn Sino yaxshilikning ikki tomonini ko'rsatib yozadi: "Birinchi yaxshilik qiluvchiga tegishli bo'lsa, ikkinchisi, yaxshilik qilinuvchiga tegishlidir. Ikkinchi yaxshilik qilinuvchi uchun yaxshilik hisoblanadi. Lekin yaxshilik qilinuvchining mukammal emasligi, yetarli bilimga ega emasligidan darak beradi. Chunki u mukammal bo'lganda edi, u yaxshilikni qabul qilishda muhtojlik sezmas edi". Bu bilan Ibn Sino mutakallimlarining xudo xohlasa dunyoda yomonlikni, xohlasa yaxshilikni o'rnatadi, xohlasa ularni yo'q qiladi, degan fatalistik taqdir aqidasi asl donolik yoki falsafa va aql nuqtayi nazaridan, yomonlik dunyoning maqsadi bo'lishi mumkin emas, faqat yaxshilikka uning maqsadidir, deb inkor qilmoqda.

Agarda ruxsat (al-amr) bo'lmasa yaxshilikni amalga oshiruvchi o'z yaxshiligini qilolmagan, taqiq (an-naxiy) bo'lmasa yomonlikdan tiyilish mumkin bo'lmagan bo'lardi. Bu bilan Ibn Sino, yomonlikni tiyish va kishilarni yaxshilikka undash yo'li bilan jamiyatda adolat va barqarorlikka erishiladi, demoqchi bo'ladi.

Ibn Sinoning fikricha salbiy xususiyatlar kishini o'z olamiga tortib, insonni normal ishlashiga yo'l qo'ymaydi, kishidagi buzuc xayollar, g'azablanish shahvatga, o'chlik kabilar ham odamning dushmanlaridir. Bular yomonlikka yo'llovchidir, hayotda kishi birinchi navbatda mana shu dushmanlariga qarshi kurashmog'i kerak. Bu bilan faylasuf kishilarni soflikka, chin insoniy xislatlarni egallashga chaqiradi.

"Hayy ibn Yaqzon" buyuk Ibn Sinoning falsafiy asarlaridan biri. manbalarda ko'rsatilishicha bu falsafiy qissa ikki variantda tarqalgan. Biri asl qissa, boshqa biri sharhi bilan. Chunki adabiyotlarda qissaning boshida keltiriladigan quyidagi parcha qissasining o'ziga emas, balki bu qissaning shayx tomonidan qilingan sharxiga taaluqli bo'lishi yoziladi. Sizlarga yordam bo'lsin, deb Tangrining qo'llashi bilan yumshadim". "Ibn Sinoning bu asariga yozgan

sharhining Oksforddagi nusxasini nashr qilgan Muhammad Sag'ir Hasan al-Ma'sumiy ham shunday xulosa" ga kelgan.

"Hayy ibn Yaqzon" asari murakkab falsafiy tilda yozilgan bo'lib, Hayy ibn Yaqzon "Tirik - Uyg'oq o'g'li demakdir". Qissa "O'z shahrimda turgan vaqtimda" (Ya'ni "O'z shahrim o'z badanim tiriklik chog'imda") uning atrofidagi sayilgoh joylarning birisiga o'rtoqlarim bilan ("o'rtoqlar" bu yerda ichki sezgilar yoki aqliy quvvatlar, g'azab, istak, xayol kabilar kiradi) sayohat qilishga erishganlar. Ibn Sino cholning (ya'ni ilmning) oshnalari (ya'ni sezgi a'zolari) nafs haqida aytgan fikrlari to'g'riligiga ishonganligini, chunki ular to'g'riligini aytib fikrini davom ettiradi. Mashaqqat bilan ya'ni ular bilan, (ya'ni nafi, g'azabi, ichki va tashqi sezgilari) shug'ullana boshlaydi. Goh ularning qo'li baland keladi, goh allomaning. To ajralishi (ya'ni hayotdan ko'z yumishi) vaqti kelguncha bu oshnalari bilan yaxshi qo'shnicilik qilishi uchun Tangridan yordam so'raydi. Ibn Sino ilmdan men bilan sayohat qil, deganida, u bu yo'l sen va senga o'xshaydiganlar uchun berkdir deydi. Chunki sen juda ishtiyoq bilan sayohatga chiqqaningda ularni (ya'ni nafs, hoyu-havas hissiyotlar) tashlab ketasan. "To ulardan yuz o'gira olishliging muyassar bo'lguncha mendan aloqangni uzib turarsan" deb inson nafsini tiyganda, har qanday hoyu-hafas, hissiyotlarga berilmaganda, inson ilm bilan shug'ullanishi mumkin. Ulardan "yakkalanishi baxt-saodat keltiradi".

U "Baxr ul Muhitda" (dunyoni o'rab olgan Atlantika okeani), ya'ni ilm, mantiqni yaxshi o'rgansa, barcha ilmni o'rganishga yo'l ochiladi demoqchi. Kavkaz tog'i uning yo'lini to'sa olmaydi. Zaboniya ham (ya'ni do'zax farishtalari) uni jahannamga uloqtirib yubora olmaydi". Bu yerda alloma bilimsiz nodonlarning yo'ldan ozishi mumkinligi, kimki ma'rifatdan xabardor bo'lsa, u qiyinchilik olovida yonmaydi, hayotda qiynalmaydi, degan fikrni nazarda tutadi. Bunda chashma deganda mantiq ilmi nazarda tutiladi. Eng avvalo mantiqni egallash lozimligi, "kimki bu chashmada cho'milsa, suvda cho'kmay yengil yuradi, tog' cho'qqilariga" (ya'ni ilm egallashdagi mashaqqatlarga) qiynalmay chiqib, insoniyat olamidani ajralgan o'sha ikki chegaraning biriga erishadi. Inson idroki uzoqdagi joylarga bir zumda yetadi, uchadi. Yaqindagi narsalarni ikkinchi shoxga o'xshatilib, u yuradi deyiladi. Bunda yaqindagi narsalarni ko'z bilan ko'rish xususiyatiga ishora qilinadi. Kishining xulqi, fe'l atvorlari haqida fikr bildirilib, g'azablanishni-yirtqich hayvonsifatlik, shahvoniylikni - to'rt oyoqli uy hayvoni sifatlik, xayolparastlik, istaklar inson qalbini, fikrini buzishi ta'kidlanadi.

Qissada insonni "yer farishtasi" deyilib, uni rost-yolg'onga rag'bati, o'ylab-o'ylamay ish qilish kayfiyati, qabul qilgan narsalarni aql bilan ifodalash xususiyatlari, bayon etiladi. Aql bor joyda "ochko'zlik, ziqnalik, shahvoniy ish" bo'lmasligi, ular (ya'ni aql darajalari) "pokiza zotlar"dir deyiladi. Aql darajalarining umri juda uzoq, o'lim ulardan yiroqlashtirilgan.

Mutafakkirning "Hayy ibn Yaqzon" qissasi Sharq falsafasidagi o'rganilishi juda og'ir bo'lgan asarlardandir. Asarda instinkt, shahvatga berilish, g'azab va boshqa ko'pgina salbiy xususiyatlarning foyda va zararli tomonlari, ular qanday munosabatda bo'lish kerakligi haqida fikr yuritiladi.

Ibn Sino fikricha komillikka intilib yashash, har ishda halol va to'g'ri yo'ldan borish, insonning o'z ichki olamiga kirishidir. Bu olamda yashirib yotgan nurli siymo bilan yaqinlashib o'zaro qo'shilishdir va buning natijasida nurlanishdir.

Hissiy bilish jarayoni, Ibn Sinoning fikricha, inson qalbida yashiringan ichki bilimni, haqiqatni bilishga olib bormaydi. Bunday aqlning shaklini Ibn Sino faol aql deb ataydi. Inson joni o'z rivojlanishining yuqori bosqichida o'z-o'zini anglaydi va buning natijasida faol aqlga yetishadi. Demak, faol aql bu aks ettirish emas, balki mahbubning visoliga yetishish, ya'ni Allohning visoliga yetishishga qaratilgan iroda va muhabbat kuchidir.

XULOSA

Demak, "Xayy ibn Yaqzon" mantiq ilmiga bag'ishlangani bilan ham aqliy tarbiyada katta ahamiyatga ega. Risola insondagi yomon illatlarni bartaraf etishda ilmu fan, ziyoning ahamiyati, insondagi aql-tafakkur quvvatining yomon illatlardan qutulishi, o'zligini anglash

vositasi ekanligi bilan adabiy-falsafiy asargina bo'lib qolmay, tarbiyaviy asar sifatida ham qimmatlidir.

Ibn Sino bu asari bilan ma'lum bir tabaqa kishilarni tarbiyalashga uringanligi sezilib turibdi. Salomonning xotini obrazi feodal saroy muhitiga xarakterli bo'lgan tiplardan biri ekanligi ana shundan dalolat berib turibdi. Asar oxirida kitobxon ko'z o'ngida yetuk, puxta va ancha quyuqlashgan, tuyg'ularga mutlaqo bo'ysunmaydigan obraz gavdalandi. Ikkinchidan, xotinning butun qilmishlari, ishlatgan hiyla-nayanglari barbod bo'ladi, egrilikning to'g'rilik ustidan hukmron bo'la olmasligi oydinlashadi. Umuman aytganda, Ibn Sinoning bu qissasi o'rta asr adabiyotining ajoyib namunasi hisoblanadi. Uning o'zi ham bu asarga alohida ahamiyat beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Ибн Сино. Ҳайй ибн Яқзон китоби // Дор ал-Маъориф наширёти. Қоҳира-2008., 4-нашр.
- 2.Абу Али ибн Сино. Фалсафий қиссалар. – Т., 1963.
- 3.Болтаев М.Н. “Мажма ул-илмий ал Арабий” журнали, Т, 29, № 3, 1954.
- 4.Абу Али ибн Сино. Ан-Нажот, 1932, Қоҳира.
- 5.Irisov A “ Ibn Sino – ma’rifatparvar adib ” Т.: O'zbekiston 1980 32-b
- 6.Холмўминов, Ж. (2008). Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти[Джами и учение ваҳдат ал-вуджуд]/Масъул муҳаррир: Н. Комилов. Тошкент:«Ozbekiston milliy ensiklopediyasi, 232.
7. Халмуминов, Д. (2006, Мау). Влияние учения Ибн ал-'Араби на развитию мистических аспектов суфийских орденов Центральной Азии. Суфизм в Иране и Центральной Азии. Материалы Международной конференции. 2-3 мая 2006 года г. Алматы (р. 256).

INNOVATIVE
ACADEMY